

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi

BD – 5111600 – 3.12

2017-yil «18»08



Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

2017-yil «18»08

**KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – pedagogika
Ta'limyo'nalishi:	5111600 – “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi”

TOSHKENT - 2017

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil "24" 08 dagi 603-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2017-yil 18.08 dagi "4"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar: Saydalixodjaeva N.F.. Nizomiynomidagi TDPU "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlar nomzodi

Jamalov N.K. - Nizomiynomidagi TDPU "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

Taqrizchilar: Polvanov I.T. - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Demokratik davlat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi

Xojaqulov O' - Yakkasaroy Yengil sanoat kolleji "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'quv - uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2017 - yil "24" 08 dagi 11-sonli majlis bayonnoma).

1. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

“Konstitutsiyaviy huquq” fani O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqi haqida tushuncha beradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, jamiyat va shaxs, fuqarolarning huquqlari erkinliklari va burchlari, ma'muriy-hududiy davlat tuzilishi, davlat hokimiyatining tashkil etilishi, xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining tuzilishi, davlat boshqaruvi usullariga doir bilimlar o'rgatiladi. Konstitutsiyaviy huquq tizimini, unda tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni, jamiyat va davlat tuzumining asoslarini hamda davlat hokimiyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga doir masalalar o'rganiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanning maqsadi – talabalarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tushunchasi, uni jamiyatdagi o'rni, xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqi haqida ma'lumot berish. Shuningdek, konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarni tushuntirish.

Fanning vazifasi-talabalarning Konstitutsiyaviy huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularning huquqiy tarbiyasi rivojlantirish, ularda qonunga itoatkorlik ruhini shakllantirish.

Talabalarga o'quv qo'llanmalar va boshqa ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish.

Konstitutsiyaviy huquqiy voqeliklarga doir bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va o'rgangan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish masalalarini ham yoritadi.

“Konstitutsiyaviy huquq” fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar qo'yiladi. *Talaba:*

– Konstitutsiyaviy huquq fanidan jamiyat xayoti sohalarida namayon bo'lish xususiyatlari to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi*;

– Konstitutsiyaning asosiy printsiplari, Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari, Jamiyat va shaxsning huquqiy munosabatlari, davlat mexanizmini amalga oshirish kabi masalalarni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- talaba normativ-huquqiy aktlarni sharxlash va qo'llash, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni Konstitutsiyaga va xalqaro-huquqiy standartlarga mos kelishi, konstitutsiyaviy huquqdan olgan bilimlarini hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, konstitutsiyaviy huquqiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

III.ASOSIY NAZARIY QISM **(Ma`ruza mashg`ulotlari).**

1-modul. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Konstitutsiyaviy huquq

1-mavzu Konstitutsiyaviy huquqning umumiy tasnifi, tushunchasi, predmeti, ob'ekti va tushunchasi, konstitutsiyaviy huquqi sub'ektlari, konstitutsiyaviy normalari, institutlari va ularning sub'ektlari, konstitutsiyaviy manbalari, konstitutsiyaviy huquq fan sifatida.

2-modul. Konstitutsiyaviy nazariya asoslari

2-mavzu Konstitutsiya va davlat, konstitutsiyaning printsiplari va xususiyatlari, konstitutsiyalarning turlari.

3-modul. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

3-mavzu O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va yangi Konstitutsiyani qabul qilish zaruriyati, O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotning o'ziga xos xususiyatlari va bosqichlari, Konstitutsiyaga o'zgartirish va ko'shimcha kiritish zarurati va tartibi

4-modul. Konstitutsiyaviy tuzumi printsiplari

4-mavzu Suverenitet tushunchasi, Davlat va fuqaro munosabatlari, davlat tili, boshqa millatlarning tili, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishi. O'zbekistonning davlat ramzlari. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari. Siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi. Konstitutsiya va qonunning ustunligi. Konstitutsiya normalarini talqin etish va uning qonun hamda boshqa normativ xujjatlar bilan munosabati. Tashqi siyosatning konstitutsiyaviy asoslari

5-modul. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari

5-mavzu Shaxs va fuqarolikka taallukli umumiy qoidalar. Fuqarolik tushunchasi. Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari. Siyosiy huquqlar tushunchasi. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar tushunchasi. Huquq va erkinliklar kafolatlari tizimi. Fuqarolarning asosiy burchlari

6-modul. Jamiyat va shaxsning huquqiy munosabatlari

6-mavzu Jamiyatning negiz tushunchasi. Iqtisodiy negiz tushunchasi, mulk shakllari, ularning teng huquqligi. Iste'molchilar huquqlarining ularning. Jamoat birlashmalarining tizimi, turlari, vazifasi. Siyosiy partiyalarning hoqimiyatni amalga oshirishdagi ishtiroki. Davlat va jamoat birlashmalari munosabati. Qilaning konstitutsiyaviy asoslari. Ommaviy ahborot vositalari va ularning jamiyat hayotida o'rni.

7-modul. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va davlat tuzulishi.

7-mavzu Davlatning tuzulishi shaklining umumiy tasnifi. Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston qonunlarining munosabati

8-modul. O'zbekistonda davlat hokimiyatini tashkil etish.

8-mavzu Demokratik jamiyatda saylovlarning ahamiyati. Saylov tizimi va saylov huquqi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentlik institutining vujudga kelishi va rivojlanishi. O'zbekistonda Parlamentning vujudga kelishi va parlament isloholari. Oliy Majlisning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni va vazifasi. Vazirlar Mahkamasining hokimiyat tizimidagi o'rni. Mahaliy davlat organlari tizimi. Xalq dupuqlari Kengashi –hokimiyatning vakillik organi. Hokimning maqomi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va uning demokratik jamiyatdagi o'rni.

9-modul. Sud hoqimiyati

9-mavzu Sud davlat hoqimiyatining mustaqil tarmog'i. Sudlar faoliyatning asosiy printsiplari. Prokuraturaning davlat organlari tizimidagi o'rni. Moliya va pul-kredit tizimi. Milliy xavfsizlik- taraqqiyot garavi.

10-modul. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining shakllari, turlari, tuzilishi

10-mavzu Konstitutsiyalarning shakllari. Konstitutsiya tuzilishi. Konstitutsiyalarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi. Konstitutsiyalarning turlari. Xorijiy mamlakatlarda saylov huquqi

11-modul. Xorijiy mamlakatlarda davlat hokimiyatini tashkil etish.

11-mavzu Davlat boshlig'i tushunchasi, davlat boshlig'ining funktsiyalari va vakolatlari, Prezident davlat boshlig'ining huquqi holati, Monarx davlat

boshlig'ining huquqiy holati haqida tushuncha va bilimlarni shakillantirish. Parlament tushunchasi va vakolatlari, Parlamentning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari. Hukumat tushunchasi va tarkibi, xorijiy davlatlarda hukumat nomlanishi, hukumat vakolatlari, hukumatni tuzishi, uning tarkibi va boshlig'i, mahkamalar va ularning rahbarlari, hukumat va hukumat a'zolarining javobgarligi haqida tushuncha va bilimlarni shakillantirish

Seminar mashg'ulotlar

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Konstitutsiyaviy huquq fanidan seminar mashg'ulotlar o'tish davomida ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, dars jarayonida mustaqil ishlashga o'rgatish, torshiriqlarni bajarishiga erishish ko'zda tutiladi. Fan bo'yicha rejalashtirilgan seminar mashg'ulotlar davomida nazariy bilimlar mustahkamlanadi.

Seminar mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bosqichlari
3. Xalq xokimiyatchiligining asosiy xususiyatlari
4. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik
5. O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari
6. Pedagog xodimlarning huquqlari va burchlari
7. Jamoat birlashmalarining huquqiy asoslari
8. Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati
9. Deputatlarning huquqiy maqomi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash
11. Davlat boshqaruv organlari tizimi
12. Xalq deputatlari kengashlari va ularning faoliyati
13. O'zbekistonda sud'yalarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
14. Prokuror nazorati yo'nalishlari
15. O'zbekiston Respublikasida moliya va kredit
16. Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalari
17. Konstitutsiyaviy nazorat instituti
18. Xorijiy mamlakatlarda davlatning hududiy tuzilishi
19. Saylov jarayoni
20. Xorijiy mamlakatlarda sudlov hokimiyati

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy topshiriqlarni bajarish orqali yanada boyitadilar. Shunundek darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislar chop erish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalarga mustaqil ta'limni tayyorlashda maxsus pedagogik fanlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha mavzularini o'rganish;
- nazariy material bo'yicha ta'lim texnologiyalarini tayyorlash;
- tavsiya etilgan qo'shimcha adabiyotlar asosida dars jarayonini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tahlil natijalari asosida xulosa va takliflar berish.

Talabalarga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi. Amaliy xarakterdagi topshiriqlar yechimi ko'rsatiladi.

Mustaqil ishini tashkil etishda unga mo'ljallangan har bir bo'lim bo'yicha adabiyotlar talaba tomonidan o'rganilishi, mustaqil ish uchun mo'ljallangan nazariy va amaliy bilim mavzularini o'zlashtirish, har bir bo'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarning mos varianti talaba tomonidan bajarilishi, Powerpoint, Maple dasturlaridan foydalanib, ularni prezentatsiya ko'rinishida tayyorlab topshirishi talab qilinadi. Jarayon o'qituvchi tomonidan uzluksiz nazorat qilinadi.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi.
2. O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotning o'ziga xos xususiyatlari va bosqichlari.
3. Konstitutsiyaning yuridik tabiati, asosiy funktsiyalari va barqarorligi.
4. Inson huquqlari – umumbashariy qadriyatekanligi
5. Inson huquqlari siyosiy va huquqiy tahlilotlar tarixida.
6. Fuqarolar konstitutsiyaviy maqomining printsiplari.
7. Fuqarolikka oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartibi.
8. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik va burchlarining konstitutsiyaviy tasniflanishi (klassifikatsiyasi).

- 9 Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi.
- 10 Fuqarolarning atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyati
- 11 O'zbekiston Respublikasi OliyMajlisining konstitutsiyaviy vakolatlari
- 12 Saylov tizimi tushunchasi va asosiy printsiplari.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik / X.T.Odilqoriev, O'.X.Muxamedov, B.A.Saidov va boshk.: Mas'ul muharrir SH.T.Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. T.:Adolat, 2013.
3. X.Muxamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. T.: Adolat, 1999
4. Mo'minov A., Tillaboyev U. Inson huquqlari. Darslik. – T.: TDYUI, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
3. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // Xalq so'zi 15 yanvar 2017 yil.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида” 2017 йил 14 февралдаги Ф-4849-сонли Фармойиши. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 7-сон, 88-модда;
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2017.

6. Boboyev H.B., Qahhorov A. Demokratik konstitutsiyaning ijtimoiy-huquqiy qirralari. -T.: O'zbekiston, 2000. -77 b.
7. Islomov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga. -T.: TDYul, 2002, -87 b.
8. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi- O'zbekiston, taraqqiyotining kafolati (ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari). -T.: Adolat, 2000.
9. Odilqoriyev X., Tulteev I.T. Ikki palatali parlament - T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2005. -344 b.
10. Odilqoriyev X. Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasi va O'zbekiston davlat organlari tizimining takomillashuvi. // O'zbekiston Respublikasi – mustaqil davlat. -T.: Adolat, 1995. -232 b.
11. Odilqoriyev X.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. -T.: O'zbekiston, 1995. -208 b.
12. Rajabova M. Huquqiy davlatchilik sari.-T.: O'zbekiston, 2000.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz– O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. <http://www.juristlib.ru>
4. <http://www.pravo.vsem.uz>

